

**INNOVATSION TA'LIM MUHITINI TASHKIL ETISH VA TA'LIM-TARBIYA
JARAYONIDA YANGI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQISH**

Yakubov Hazratqul Ummatovich

*Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti
Fakultet (malaka oshirish) boshlig'i*

Annotatsiya: *Bugungi ta'lim-tarbiya islohoti bo'lajak mutaxassislar-ni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning bilim, ko'nikma va malakalarini zamonaviy talablarga mos shakllantirish muammosini dolzarb qilib qo'ydi. Mazkur maqolada pedagogik faoliyatda tarbiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati va dolzarbligiga ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogik faoliyat, ta'lim-tarbiya, mutaxassis, bilim, ko'nikma, malaka, tarbiya texnologiyasi, zamonaviy talab.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmonining 4.4-bandida belgilab qo'yilgan "Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy- eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish"[1] ustuvor vazifalar sifatida belgilab qo'yilgan. Mazkur vazifalarning samarali hal etilishi o'z navbatida innovatsion ta'lim muhitini tashkil etish va ta'lim-tarbiya jarayonida yangi zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va amalda joriy qilish orqali mavjud dolzarb muammo va kamchiliklarni bartaraf etishni taqozo etadi. Shuningdek, zamonaviy talablar ta'lim jarayonini yaxlit tizimi sifatida modernizatsiyalash hamda ta'limda innovatsion faoliyatni tashkil etish zaruriyatini ko'rsatmoqda.

Bizga yaxshi ma'lumki, tarbiya jarayoni uzoq muddatli, murakkab, uzluksiz bo'lib, u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Garchi zamonaviy ta'lim texnologiyasi o'quvchining ta'lim jarayonidagi yetakchilik rolini yoqlayotgan bo'lsada, tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi asosiy mavqeini egallay olmaydi. Chunkiy unda xarakter, dunyoqarash yetarlicha shakllanmagan bo'lib, u bu borada tarbiyachining yordamiga ehtiyoj sezadi shu bois tarbiya texnologiyasi mantiqiy, ham tarkibiy jihatdan ta'lim texnologiyasidan farq qiladi.

Tarbiya texnologiyasi asosida tarbiyaviy jarayon yotadi. O'qituvchilar talabalar faoliyatini tashkil etuvchilar bo'lib, ular tomonidan erishiladigan natijalarni rejalashtirish va unga erishish usullari, bu usullarni modellashtirish ishlab chiqarilgan reja va modellarni ro'yobga chiqarish, bu rejalarni amalga oshiruvchi shaxsning faoliyati va axloqini boshqarish kabilar hisoblanadi [2].

Tarbiya – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o‘z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar bilan va tarbiyaga ega bo‘lgan kishilar tarbiyalanuvchilar bilim va tajriba o‘rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko‘rsatmasalar tajriba va bilim o‘rgana olmaydilar. O‘qituvchilar o‘zlarining innovatsion faoliyatlarida quyidagi tarbiya vazifalarini bajarishlari lozim:

1. O‘z vatanini fuqarosini tarbiyalash. Bunda o‘qituvchi milliy vatanparvarlik, o‘z vataniga, tarixiga, madaniyatiga iftixor tuyg‘usi; millatlararo madaniy munosabatlar, siyosiy madaniyat nazarda tutiladi.

2. Shaxsning ma‘naviyatini shakllantirish. Ma‘naviyat kishining ichki dunyosi bo‘lib, uningjamiyat va tabiatdagi “Men” i, obrazi, taqdiri va rolini ifoda etadi. Ma‘naviyat darajasi bu, ma‘lum ma‘noda, insoniylik mezonidir. Ma‘naviyatni shakllantirish bu uning shaxsiy harakatlari, intilishlari, refleksiyasi bilan kishining ichki dunyosini vujudga keltirishdir.

3. Talabaning iqtisodiy tafakkurini tarbiyalash mehnatga, kasbga hurmat va ijtimoiy-psixologik jihatdan yoshlarda mustaqillik, ijod, ishchanlik, faollik, yuqori kasbiy tayyorgarlik sifatlarini kuchaytirish zarur.

4. Ruhiiy - jismoniy sog‘lomlikni tarbiyalash. Bu axloqiy – hayotiy muvozanat va psixologik qulaylik holatini ushlab turish hamda jismoniy rivojlanish meyoridan uzoqlashib ketishga yo‘l qo‘ymaslik ko‘nikmalarini shakllantirishdir.

5. Kishining tabiat bilan munosabatini uyg‘unlashtirish. Talabaning tabiat bilan munosabatini uyg‘unlashtirish konkret xududiy o‘ziga xoslikni hisobga olgan holda o‘lkashunoslik va tabiatshunoslik bo‘yicha amaliy faoliyatni kuchaytirish va kengaytirishni talab etadi. Bu esa, o‘z navbatida, tarbiyalanuvchilarga nafaqat ekologik xavfsizlik qoidalarin anglab yetish balki, tabiatni qo‘riqlash ishida shaxsan qatnashish zarurligiga ishonch hosil qilish imkonini ham beradi.

6. Shaxsda individuallik va jamoaviylikni tarbiyalash. Talaba jamoada shakllanadi, tarbiyalanadi. Shu jarayonni tashkil qilish o‘qituvchining asosiy vazifasi sanaladi.

Pedagogning innovatsion faoliyati tarbiya jarayonining mazmunidan kelib chiqadi. Tarbiya jarayonining mazmuni - bu bilimlar, e‘tiqodlar, ko‘nikmalar, sifatlar, shaxs qiyofasi, axloqning barqaror odatlari sistemasi bo‘lib, tarbiyalanuvchilar qo‘yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq ularni egallab olishlari zarurdir. Pedagogning innovatsion faoliyatida yetakchi funksiyalardan biri tarbiyalanuvchilar faoliyatining darsdan tashqari tizimini loyihalash hisoblanadi. Darsdan tashqari faoliyat tizimi o‘qitishning nazariy va amaliy tizimini to‘ldiradi. Uning asosiy vazifasi o‘qitishdan tashqari vaqtini o‘zini-o‘zi tarbiyalash va ijtimoiy faoliyatini mehnat bilan shug‘illanish uchun oqilona taqsimlashga yordam berishdir [3].

Ta‘lim olayotganlarning darsdan tashqari faoliyatini loyihalash vazifalari:

- tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy moslashuvchanligini tashkil etish va ularning ijtimoiy xarakatchanligini ko‘rsatish;
- bo‘ljak mutaxassislarni kasbiy moslashuvi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- talabalarning mustaqil o‘qish yo‘li bilan ta‘limni davom ettirishga yo‘llash;

-xar bir ta'lim oluvchining qobiliyati qiziqishi va ishtiyoqini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- talabalarni erkin vaqtdan unumli foydalanish dam olish mahoratini egallashga o'rgatish.

Tarbiya jarayoninig mohiyati, qonuniyatlari va o'ziga xos jixatlari hususidagi mavjud nazariy va amaliy g'oyalarga pedagogik bilimlarga tayangan holda tarbiya texnologiyasinig tarkibiy qismlarini quyidagicha belgiladi:

1. Tarbiya jarayonini umumiy loyihasi;
2. Tarbiyani tashkil etishga bo'lgan ijtimoiy extiyoj (buyurma);
3. Tarbiya maqsadi.
4. Tarbiya mazmuni (shakl, metod, usul va texnik vositalar);
5. O'qituvchi (tarbiyachi) faoliyati;
6. Talaba (tarbiyalanuvchi faoliyati);
7. Tarbiya samarasi (natija).

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonni mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini o'rganadi. Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan yondoshish o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq jarayonni ham qayta ko'rib chiqishni taqazo etmoqda.

Hozirgi zamon pedogogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta'sir ko'rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarni aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o'zaro ta'sir ko'rsatishi ekanligi alohida ta'kidlanadi. Bugungi kunda shunchaki bilim egasi bo'lgan insonni emas, balki ijodkor, o'z iste'dodi bilan ajralib turuvchi ishbilarmon insonni tarbiyalash zamon taqazosidir [4].

O'quv yurtlarida tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish asosiga ilg'or milliy, ma'naviy ahloqiy qadriyatlar va mezonlar, xalq pedagogikasi, marosimlar, bayramlar, o'yinlar va boshqalar qo'yilishi kerak.

Shu bilan birga tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, ahloqiy, irodaviy, estetik hislatlari shakllanadi, jismoniy kuch quvvatlari mustaxkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaati. //Vatanparvar//, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.
3. «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-yanvaridagi 2020 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi” Yangi O'zbekiston” gazetasi,2020-yil ,25-yanvar